

KORXONANING MOLIVAVIY HOLATINING FAKTORIAL TAHLILI.

Ergashev Erkin Esirgapovich

Toshkent Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti
“Iqtisodiyot” Kafedrası o‘qituvchisi

Kayumov Erkin Kayumovich

Toshkent Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti
“Iqtisodiyot” Kafedrası Dossenti

Annotasiya. Ushbu maqolada korxonalarning moliyaviy holatini ekonometrik modellashtirish buyicha asosiy nazariy asoslar keng o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. Korxonalar, mexanizm, ekonometrik modellashtirish, funksional korrelyatsion (yoki statistik) bog‘lanishlar, doimiy nama‘lum koeffitsentlar, Faktorli tahlilning misolining modelini keltirish mumkin.

KIRISH

Ko‘pgina iqtisodda, texnikada va boshqa sohalarda turli son va sifat belgilari orasidagi munosabatlarni o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Belgilar orasida ikki turdagi bog‘lanish – funksional korrelyatsion (yoki statistik) bog‘lanishlar mavjuddir.

Agar ikki y_1 va x_1 tasodifiy miqdor orasida shunday munosabat (korrelyatsiya) mavjud bo‘lsaki, x_1 miqdorining har bir o‘rtacha qiymatiga, y_1 miqdorining ma‘lum o‘rtacha qiymati mos kelsa, y_1 va x_1 orasidagi bunday munosabat statistik yoki korrelyatsion munosabat deb ataladi. Korrelyatsion modellar guruhidagi juda muhim ahamiyatli modellardir.

Agar ko‘rsatkich ya‘ni korxona moliyaviy holati boshqa ko‘rsatkichlarga bog‘liq bo‘lsa, natijaviy ko‘rsatkich deyiladi va y_1 bilan belgilanadi, shuningdek, natijaviy ko‘rsatkich bog‘liq bo‘lgan o‘zgaruvchilar argument yoki faktorli belgi yoki oddiy factor deb atalib, x_1 bilan belgilanadi.

Bu holda korrelyatsion model shunday yoziladi:

$$y_i = a_0 + b_1 x_{1i} + a_2 x_{2i} + a_3 x_{3i} + \dots + a_n x_{ni} \quad (1)$$

va (1) ni kelgusida regressiya tenglamasi deb ataladi. Buy yerda y_i tekshirish orqali topiladigan natijaviy ko‘rsatkich x_i – tajribadan beriladigan faktor ko‘rsatkich, a_0, a_1 va a_2 – doimiy nama‘lum koeffitsentlardir. Bu noma‘lumlarni toppish uchun eng kichik kvadratlar usulida foydalanish mumkin?

Korrelyatsion tahlilga iqtisodga foydali tomoni quyidagilardan iborat:

1) topilgan model kelgusi iqtisodiy jarayon ya‘ni korxonalarning moliyaviy holatini bashorat qilish uchun ishlatiladi;

2) kompyuter orqali hisoblangan a_0, a_1 va $a_2 \dots a_n$ noma‘lum koeffitsentlar korxonalarning moliyaviy holati qaysi faktorlarga bogliq darajasini aniqlab beradi.

Faktorli analiz- bu ayrim faktorlarni natijaviy ko'rsatkichga ta'sirini o'rganadi. Bunda korrelyatsion analiz usullaridan foydalanadi.

Faktorli tahlilning misolining modelini keltirish mumkin:

$$Y_{CK}=Y/CK=Y/BP*BP/A*A/CK \quad (2)$$

Bu yerda

Y_{CK} - xususiy kapitalning toza rentabelligi;

Y – toza (taqsimlangan) hisoblanayotgan oraliqdagi daromad;

CK – ohirgi hisobot sanasidagi xususiy capital;

BP – mahsulotni ayirboshlashdagi tushum;

A – ohirgi hisobot sanasidagi aktiv.

Agar buxgalteriya hisobotining tahliliga ko'ra toza daromad kamaysa, unda quyidagi faktorlar asosida kamayganligi aniqlanadi:

- 1) toza daromadni kamayishi
- 2) aktivlarni boshqarishdagi kam foydaliligi
- 3) avansirlashgan kapitalning tarkibini o'zgarishi.

Misol keltiramiz. Hisobot yilining birinchi kvartali bo'yicha hisobot: sof daromad 3 247,5 mlrd. so'm, ayirboshlashdan keladigan tushum – 23 926,6 mlrd. so'm, aktiv 37 872,0 mlrd. so'm, xususiy kapital – 5 897,9 so'm.

Hisobot yilining ikkinchi kvartali bo'yicha toza daromad – 3 416,0 mlrd. so'm, ayirboshlashdan keladigan tushum – 26 209,5 mln so'm, aktiv – 41 411,5 mlrd. so'm, xususiy capital – 6 030,3 mlrd so'm.

$$Y_{CK}=Y/CK=Y/BP*BP/A*A/CK \quad (3)$$

Formulasiga asosan ishlaymiz.

$$Y_{CKI} = 3247,5/23926,6*23926,6/37872,0*37872,0/5898,0*100 = 55,1 \%$$

$$Y_{CKII} = 3416,0/26209,5*26209,5/41411,5*41411,5/6030,3*100 = 56,6\%$$

1) natijada toza daromadni o'sishi natijasida xususiy kapitalning toza rentabelligini o'sishi 1,5 % (56,6-55,1) ga teng bo'ladi:

$$3416,0/26209,5*23926,6/37872,0*37872,0/5898,0*100 = \%$$

2) aktivlarni aylantirishni tezlashtirish natijasida xususiy kapitalni toza rentabellikni o'sishi 0,3 % (30,3-30) ga teng bo'ladi:

$$3247,5/26209,5*26209,6/41411,5*37872,0/5898,0*100 = \%$$

Kapital tarkibini o'zgartirish hisobiga xususiy kapitalning toza rentabelligini o'sishi 1,5%(31,5-30) ga teng bo'ladi:

$$3247,5/37872,0*23926,6/37872,0*41411,5/5898,0*100 = \%$$

4) o'rtacha faktorni qo'shsak:

$$1,14+0,3+1,5=2,94\% \text{ yoki tahminan } 3\%$$

Moliyaviy koeffitsientlar usuli – bu buxgalteriya hisobotini munosabatini hisobi. Ko'rsatkichlarni o'zaro bog'liqligini aniqlashdir. Tahlil qilishda quyidagi faktorlarni hisobga olish kerak: qo'llamlayotgan rejalashtirish usullarini faolligi, buxgalteriya hisobotini haqqoniyliigi, har xil hisobga olish usullari, boshqa korxonalarining diversifikatsiyasi, qo'llanilayotgan koeffitsientlarining statisligidir.

Rivojlangan g'arb korporatsiyalarining amaliyotidan (AQSH, Kanada, B.Britaniya) ushbu uchta koeffitsent keng qo'llaniladi:

ROA,ROE, ROAC

Umumiy aktivlarning yig'indisidan keladigan daromad (ROA) = toza daromad + (1 stavka soliqqa) foyzi/jami aktivlar*100%

Investorli capital, ya'ni (doimiy kapital) uzoq muddatli shartnomani ifoda etadi. Shuning uchun u pullik uzoq muddatli resurslarni ifodalaydi:

Investorlangan capital daromad (ROAC)= toza daromad+(1stavka soliqqa) foiz/uzoq muddatli shartnoma+Aksioner capital

Demak, mazkur bo'limda korxonalarning moliyaviy holatini tahlilining ahamiyati va uning usullarini batafsil qarab chiqdik.

Barcha yuqorida keltirilgan usullar o'zining ustuvorligiga, shuning bilan birga kamchiliklariga ham ega. Bu borada kelgusida izlanishlar olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdukarimov I.T. Moliyaviy xisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari. T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyat uyi, 1998 y.
2. Bakanov M.I., Sheremet A.D. Teoriya iqtisodiy tahlil. M.: Finansiya va statistika, 1995.
3. Beganov V.S., Shaulov D.I., Kan U.T. Osobennosti buxgalterskogo ucheta v aktsionernix obshchestvax. T.: Izd. dom "Mir iqtisodiyoti va huquq", 1998.
4. Volozhin I.O., Ergasboev V.V. Moliyaviy tahlil. T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyat uyi, 1998.
5. Kovalev V.V. Finansiya analiz. M.: Finansiya va statistika, 1996.
6. Pardaev M.K. Moliyaviy tahlil metodologiyasi. Samarqand: SamKI, 1997.
7. Pardaev M.K. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonada foyda va rentabel'lik tahlili. Samarqand: SamKI, 1996.
8. Petrov V.V., Kovalev V.V. Kak chitat' balans. M.: Finansiya va statistika, 1993.
9. Sheremet A.D., Sayfulin R.S. Metodika finansovogo analiza. M.: INFRAM, 1996.
10. Finansiya analiz deyatel'nosti firmi. M.: "Krokus International", 1993
11. Radionova V.N., Fedotova M.A. Finansovaya ustoychivost' predpriyatiya v usloviyax inflyatsii. Moskva, 1995 y.
12. Efimova O.V. Finansiya analiz. Moskva, 1996 y.
13. Radionov N.V., Radionova V.M. Osnovi finansovogo analiza: Matematicheskie metodi. Moskva, 1999 y.
14. Pogostinskaya N.A., Pogostinskiy Yu.A. Sistemy analiz finansovoy otchetnosti. Moskva, 1999 y.
15. Abdukarimov I.T. Kak chitat' i analizirovat' finansovuyu otchetnost'. Toshkent, 1998-1999 y., 3 kitob.